




ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ASARIDAGI ANTROPONIMLAR

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10972240>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-aprel 2024 yil

Ma'qullandi: 13-aprel 2024 yil

Nashr qilindi: 15-aprel 2024 yil

KEY WORDS

*antroponim, antroponimika,
antroponimiya, ism, laqab,
familiya, taxallus,*

ABSTRACT

Maqolada tilshunoslikning eng asosiy bo'limi bo'lgan onomastikada antroponimlarning o'rganilishi, uning leksik tizimdagi o'rni haqida izoh berilgan va mulohazalar bildirilgan. Antroponim tushunchasining tilshunoslikda paydo bolishi tarixi bo'yicha ayrim ma'lumotlar ifodalangan va shuningdek, uning nutqdagi vazifasi belgilangan.

Onomastika-yunoncha onomastike-so'zidan olingan bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi: Ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. XX asrning 60-70-yillarida "onomastika" termini boshqa terminlar qatori kirib keldi. Hozirda juda ham rivojlanib bormoqda qanchadan-qancha ilmiy ishlarni ham ayni shu onomastik (nomshunoslik) bo'yicha olib bormoqdalar.

"O'zbek onomastikasi masalalari" fanini o'rganish uchun Birinchi prezidentimiz I A Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asaridagi so'zlar dasturamal bo'lib qoldi. ¹Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarini bezab turgan o'zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko'rib, bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko'chalarning nomlarini o'qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatinlar. Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo'lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo'ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi

¹ "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"

aksariyat turarjoy mavzelari "S-1", "S-2", "S-15" degan, odamda hech qanday his-tuyg'u, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinganini eslaylik. Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog'-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o'n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma'noli, go'zal nomlarni olaylik. Samarqand, Beshyog'och, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar darvoza degan nomlar avvalambor o'zining aniq tarixiy-jug'rofiy ma'nosi bilan ajralib turadi. Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, Ko'nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqim izning azaldan o'troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekcha ismlarning ma'nolarini o'rganish yaqin 1960-yillardan boshlangan ko'gina olimlar bu ishga juda ham qiziqib ketib ilmiy ishlar yozishgan. O'zbek antroponimikasining asoschisi, hech shubhasiz, E.A.Begmatov sanaladi. 1962-1965-yillar oralig'ida ism, familiya, otasining ismi, laqab, taxalluslar haqida juda ham ko'p ma'lumotlar to'plab ilmiy ishlar chiqargan, shular asosida 1965 yilda "O'zbek tili antroponimikasi" mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan edi. Shundan keyin antroponimlar haqida juda ham ko'p asarlar yozgan. Shu asarlar orqali antroponimlarni tanlashda yaxshilab o'ylab, har bir ismning ma'nosiga e'tibor berib qo'yishimiz kerak.

Hozir Ulug'bek Hamdamning "Ota" asaridagi antroponimlarga to'xtalamiz. Bu asarda ham rus ham o'zbek antroponimlaridan foydalangan. Oychechak, O'tkir, Po'lat, Yog'du, Sevinch, Yodgor, Erboy, Kenjavoy, Yaxshiboy, Botir, O'g'iloy, Tursun, Yulduz, To'lqin, To'xtasin, O'ktam, Otajon, Yorqin, Turdi, Toshxo'ja (Boshxo'ja), Tursunoy, Avazbek, Ochil, Bekjon, Elbek, Sotiboldivoy, Amir Temur, Azayimxon, Nikita, Balayan, Tusmol, Olya, Fakil, Gyote, kabi ismlar orqali asar voqealari bayon qilib o'tgan. Ism qanchalik chiroyli va asarning mazmuniga mos bo'lsa uni o'qiydigan inson yanada qiziqish bilan o'qiydi. Yozuvchi ham ismlarni shunchalik yaxshi tanlagan-ki uni o'qigandan keyin yana o'qigimiz keladi.

"O'zbek antroponimiyasining milliy o'ziga xosligini ikki lisoniy material ta'minlaydi. Bular: tub turkiy nomlar va o'zbekcha ismlardir. Milliy-lisoniy ruh, ayniqsa o'zbekcha nomlarni ijod qilishda yorqin namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining imlo lug'ati Toshkent Begmatov E. A, Madvaliyev A. P. "Akademnashr" 2013
2. O'zbek tili antroponimikasi Begmatov E. A
3. O'zbek onomastikasi masalalari Yo'ldoshev B Samarqand-2011
4. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch Karimov I. A Toshkent "Ma'naviyat"-2010
5. Ulug'bek Hamdam Ota Toshkent-2020